


AHOLI SALOMATLIGI YO’LIDA - MILLIY FTIZIATRIYA VA RESPIRATOR TIBBIYOTNING POYDEVORI HAMDA PROFILAKTIKA, DIAGNOSTIKA VA DAVOLASHDAGI INNOVATSIYALARNING YANGI UFQLARI

O’ZBEKISTON FTIZIATRLARI VA PULMONOLOGLARINING IX SYEZDI

DASTUR-TAKLIFNOMA

2026 yil 24-25 sentyabr
Toshkent



STRATEGIK HAMKORLAR

World Health Organization

THE GLOBAL FUND

Stop TB Partnership

SYEZDNING BOSH HAMKORLARI

Getz pharma
A member of The Getz Group, USA

ASOSIY HAMKORLAR

phs Фармстандарт

MENARINI
БЕРЛИН-ХЕМИ
МЕНАРИНИ

DELFT IMAGING

MEDECINS SANS FRONTIERES

HAMKORLAR

NOBEL

Serene
Наука для счастья!

ферон

SOG'LOM AVLOD UCHUN FOR THE HEALTHY GENERATION

BEST MARKETIN

ISTIQBOLLI AVLOD

Innovative Medicine®

SYEZD TASHKILOTCHILARI

O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi

Akademik Sh. Alimov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi

O’zbekiston Respublikasi ftiziatrlar va pulmonologlar ilmiy-tibbiy jamiyati

Markaziy Osiyo pulmonologlari assotsiatsiyasi

SYEZD TASHKILIY QO’MITASI

Rais:

Imamov O.S.	O’zbekiston Respublikasi sog’liqni saqlash vazirining birinchi o’rinbosari

Rais o’rinbosari:

Fayziyeva N.A.	Sog’liqni saqlash vazirligining Tibbiyot ta’limi va ilm-fan departamenti boshlig’i

A’zolar:

Karimov M.M.	Sog’liqni saqlash vazirligining Davolash-profilaktika yordamini tashkillashtirish departamenti boshlig’i
Sanayev F.Ch.	Sog’liqni saqlash vazirligining Matbuot kotibi
Parpieva N.N.	Akademik Sh. Alimov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori, Sog’liqni saqlash vazirligining bosh ftiziatri
Liverko I.V.	Akademik Sh. Alimov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktorining ilmiy ishlar bo’yicha o’rinbosari, Sog’liqni saqlash vazirligining bosh pulmonologi
Rajabov X.S.	Akademik Sh. Alimov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktorining filiallar bilan ishlash bo’yicha o’rinbosari, Sog’liqni saqlash vazirligining pulmonolog-maslahatchisi
Massavirov Sh.Sh.	Akademik Sh. Alimov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi yetakchi mutaxassisi
Safaev X.S.	Akademik Sh. Alimov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi xalqaro hamkorlik bo’limi rahbari

O’TKAZILISH JOYI
InterContinental Tashkent Convention Center

MANZIL
Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Shahrisabz ko’chasi, 2-uy.

RO’YXATDAN O’TISH
O’zbekiston ftiziatrlari va pulmonologlarining IX Syezdi ishtirokchilarini ro’yxatdan o’tkazish 2026-yil 24-sentabr kuni soat 08:00 dan 10:00 gacha InterContinental Tashkent Convention Center foyesida amalga oshiriladi.

WELCOME-kofe soat 08:00 dan 10:00 gacha

Tibbiyot xodimlari uchun konferensiya zaliga kirish erkin. Kirishda shaxsni tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish lozim.

Xizmat safari guvohnomalariga belgi qo’yish ro’yxatdan o’tish stendida amalga oshiriladi.

Ishtirokchi sertifikatlari Syezd ishi yakunlanganidan so’ng diplom nusxasi va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo’lganda beriladi.

KONGRESSNING RASMIY TILLARI
O’zbek, rus, ingliz

KO’RGAZMA
Hamkorlar va tibbiy texnika ko’rgazma stendlari 2026-yil 24-sentabr kuni soat 08:00 dan 18:00 gacha namoyish etiladi (InterContinental Tashkent Convention Center xolllari).

MA’RUZACHILAR UCHUN MA’LUMOT
Yig’ilish zali kompyuterlar va multimedia proektorlari bilan jihozlangan, shaxsiy kompyuterdan foydalanishga yo’l qo’yilmaydi.
Taqdimotlarni yig’ilish boshlanishidan kamida bir soat oldin flesh-kartada taqdim etish zarur.

MOBIL TELEFONLAR
Syezd ishtirokchilaridan yig’ilish o’tkaziladigan zallarda mobil telefonlarni o’chirilgan holatda yoki ovozsiz rejimda saqlash qat’iy so’raladi.

CHEKISH
Yig’ilish zallari va mehmonxona xolllarida chekish taqiqlanadi.

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG’LIQNI SAQLASH VAZIRINING TABRIGI

Hurmatli mehmonlar, ishtirokchilar va hamkasblar!

Barchangizni O‘zbekiston poytaxti – Toshkent shahrida samimiy qutlashga ijozat bergaysiz. Bugun bu yerda O‘zbekiston ftiziatrlari va pulmonologlarining IX syezdi bo‘lib o‘tmoqda. Ushbu anjuman jamoat salomatligi tizimi uchun katta yuk bo‘lib qolayotgan yuqumli va yuqumli bo‘lmagan kasalliklarga qarshi kurashish, O‘zbekiston aholisi salomatligini asrash bilan bog‘liq dolzarb masalalarni muhokama etadigan muhim tadbirlardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasida ko‘p yillardan buyon inson huquq va erkinliklarini ta’minlaydigan demokratik huquqiy davlat barpo etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Barcha islohotlarning bosh maqsadi insonlarning barkamol rivojlanishi va farovonligini ta’minlash, ularning salomatlik va munosib turmushga bo‘lgan huquq hamda manfaatlarini ro‘yobga chiqarishdir. Eng muhimi, bu keng ko‘lamli islohotlar «Salomatlik–2030» strategiyasi maqsadlari bilan hamohang bo‘lib, inson va uning manfaatlari yo‘lida hayot sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy ustuvor yo‘nalishi aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, e’tiborni kasalliklarni davolashdan ularning oldini olishga qaratishdan iborat.

Sog‘liqni saqlash tizimi rivojlanishining bugungi ustuvor vazifalari, respirator kasalliklarning keng tarqalganligi hamda nafas olish a’zolari kasalliklari keltirib chiqarayotgan tibbiy-ijtimoiy yukni inobatga olib, mamlakatimizda ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya xizmatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishning izchil ko‘p bosqichli tizimi shakllantirilgan bo‘lib, unga umumiy amaliyot shifokorlari va turdosh soha mutaxassislari ham jalb etilgan.

Siyosiy iroda va davlat qo‘llab-quvvatlashi, jumladan, Prezident hamda Hukumat qarorlari doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar so‘nggi o‘n yil ichida sil bo‘yicha asosiy epidemiologik ko‘rsatkichlarning pasayishiga xizmat qildi. Xususan, kasallanish 1,5–2 baravar, o‘lim ko‘rsatkichi esa 6 baravar kamaydi. Bugungi kunda bunday natijalarga dunyoning sanoqli mamlakatlarigina erishgan.

Shubhasiz, O‘zbekiston ftiziatrlari va pulmonologlarining IX syezdi o‘zbek olimlari ilmiy maktabining nufuzini namoyon etish bilan birga, aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishda xalqaro standartlarga erishish hamda milliy tibbiyot ilm-fanini rivojlantirish uchun muhim turtki bo‘ladi.

Syezdning barcha ishtirokchilariga samarali faoliyat, kasbiy bilim va ko‘nikmalarini yanada oshirish, turli mamlakatlar olimlari va mutaxassislari o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini mustahkamlashni tilayman.

Adilov Eldor Erkinovich,
O’zbekiston Respublikasi
Sog’liqni saqlash vaziri

AKADEMIK SH. ALIMOV NOMIDAGI RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN FTIZIATRIYA VA PULMONOLOGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI DIREKTORINING TABRIGI

Hurmatli mehmonlar, do'stlar va ishtirokchilar,
Xush kelibsiz! Добро пожаловать! Welcome!

Barchangizni ko'p asrlik tarixga ega O'zbekiston poytaxti – Toshkent shahrida samimiy qutlashga ijozat bergaysiz.

O'zbekiston ftiziatrlari va pulmonologlarining IX Syezdi mamlakatimiz hamda xorijiy ftiziatriya va respirator tibbiyot ilmiy maktablarining yetuk vakillarini birlashtirmoqda. Syezd doirasidagi muhokamalar milliy ftiziatriya va respirator tibbiyot erishgan yutuqlarni sarhisob qilishdan tortib, profilaktika, diagnostika va davolashdagi innovatsiyalarning yangi ufqlarini belgilashgacha bo'lgan masalalarni qamrab oladi. Ushbu anjuman O'zbekistonda ftiziatriya va pulmonologiya xizmatlarining shakllanish bosqichlariga nazar tashlash, shuningdek, sohadagi ilm-fan va amaliyotning eng muhim yutuqlari yuzasidan tajriba hamda fikr almashish uchun noyob imkoniyatdir.

Mamlakatimizda silga qarshi kurashish chora-tadbirlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi yuksak siyosiy iroda hamda inson manfaatlariga xizmat qiladigan, O'zbekistonning har bir fuqarosi uchun sifatli tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan bunyodkor islohotlar bilan chambarchas bog'liq. Inson salomatligi – tabiatning bebaho ne'mati, bugungi va kelgusi avlodlar farovonligining garovidir. Sayyoramizdagi har bir inson salomatligini asrash va mustahkamlash – barchamizning burchimiz.

Ishonamizki, IX Syezd doirasidagi samarali faoliyat, tajriba almashinuvi va xalqaro ekspertlar bilan uchrashuvlar oldimizda turgan ko'plab vazifalarni hal etishga ko'maklashadi hamda yaqin yillardagi rivojlanish istiqbollarimizni belgilab beradi.

Syezdning barcha ishtirokchilariga ijodiy muvaffaqiyatlar, ko'zlangan maqsadlarga erishish, qiziqarli va samarali faoliyat, mazmunli munozaralar hamda amaliy natija beradigan qarorlar tilayman.

Biz barcha insonlar farovonligi yo'lida mehnat qilamiz. Faoliyatimiz katta mas'uliyat va fidoyilikni talab etadi. Sizlarga sharafli mehnatingizda yangi yutuqlar tilayman!

Parpieva Nargiza Nusrtatovna
Akademik Sh. Alimov nomidagi RIFPIATM direktori,
Davlat mukofoti sovrindori, t.f.d., professor

O’ZBEKISTON FTIZIATRLARI VA PULMONOLOGLARI IX SYEZDI SEKSIYA YIG’ILISHLARI JADVALI

2026- yil 24-sentyabr

«Sirdaryo» zali	«Amudaryo 1» zali	«Amudaryo 2» zali	«Amudaryo 3» zali
09:00 – 13:00	**10:00 – 13:00**	**10:00 – 12:00**	**10:00 – 12:00**
O’ZBEKISTON FTIZIATRLARI VA PULMONOLOGLARINING IX SYEZDINING OCHILISH MAROSIMI **YALPI MAJLIS YIG’ILISHI** «Tuberkulyoz va respirator salomatlik bo’yicha global strategiyani joriy etish — g’alaba sari yo’l» https://us06web.zoom.us/j/86983473783?pwd=1eydGFv1UyQOag8mAIj7srTPbtadh6.1 **Meeting ID:** 869 8347 3783 **Passcode:** 098012	**FDBIM «MTITI» ONLAYN SEKSIYASI (Rossiya)** «Tuberkulyoz diagnostikasi, nazorati va davolashdagi innovatsion texnologiyalar» https://us06web.zoom.us/j/84416769622?pwd=9IlZZQEl8bzlkMDhxMX4pXRliJgdD2.1 **Meeting ID:** 844 1676 9622 **Passcode:** 107324	**HAMSHIRALAR UCHUN MAKTAB** «Bemor yonida»: sog’ayish yo’lida psixologik tayanch va motivatsiya» *«Chegara bilmas shifokorlar» xalqaro gumanitar tashkiloti texnik ko’magida* https://us06web.zoom.us/j/83349316341?pwd=9LWmq2QDqNzKGCXyLqRaKtX2yaWZP6.1 **Meeting ID:** 833 4931 6341 **Passcode:** 397355	**UMUMIY AMALIYOT SHIFOKORLARI UCHUN MAKTAB** «Bemorlarni samarali yo’naltirish maktabi: standartlardan amaliyotga» https://us06web.zoom.us/j/85873333170?pwd=JqZqVS2bthxOH8Ae6LabVB2wYyg3Uo.1 **Meeting ID:** 858 7333 3170 **Passcode:** 343513
TANAFFUS			
14:00 – 18:00	**14:00 – 18:00**	**14:00 – 18:00**	**14:00 – 18:00**
1-SEKSIYA YIG’ILISHI «Tuberkulyoz diagnostikasi, nazorati va davolashdagi innovatsion texnologiyalar» https://us06web.zoom.us/j/86983473783?pwd=1eydGFv1UyQOag8mAIj7srTPbtadh6.1 **Meeting ID:** 869 8347 3783 **Passcode:** 098012	**2-SEKSIYA YIG’ILISHI** «Amaliy tibbiyotning multidissiplinar yondashuvi doirasida o’pkadan tashqari a’zolari tuberkulezni diagnostikasi va davolash masalalari» https://us06web.zoom.us/j/84416769622?pwd=9IlZZQEl8bzlkMDhxMX4pXRliJgdD2.1 **Meeting ID:** 844 1676 9622 **Passcode:** 107324	**3-SEKSIYA YIG’ILISHI** «Amaliy tibbiyotning multidissiplinar yondashuvi doirasida respirator salomatlik muammolari» https://us06web.zoom.us/j/83349316341?pwd=9LWmq2QDqNzKGCXyLqRaKtX2yaWZP6.1 **Meeting ID:** 833 4931 6341 **Passcode:** 397355	**4-SEKSIYA YIG’ILISHI** «Amaliy tibbiyotning multidissiplinar yondashuvi doirasida tuberkulyozni jarrohlik yo’li bilan davolash masalalari» https://us06web.zoom.us/j/85873333170?pwd=JqZqVS2bthxOH8Ae6LabVB2wYyg3Uo.1 **Meeting ID:** 858 7333 3170 **Passcode:** 343513

2026- yil 24-sentyabr

«SIRDARYO» ZALI

O’ZBEKISTON FTIZIATRLARI VA PULMONOLOGLARI IX SYEZDINING OCHILISH MAROSIMI

09:00 – 10:00

Boshlovchilar: *Djurabaeva Muxabbat, Abdullaev Otabek*

Tabrik 09:00-09:30	O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vaziri *Eldor Adilov*
	O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Mehnat, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi raisi o’rinbosari *Yelena Borisova*
	Jahon sog’liqni saqlash tashkilotining Yevropa mintaqaviy byurosi direktori V.B. *Dr Corinne Capuano (onlayn)*
	Jahon sog’liqni saqlash tashkilotining tuberkulyoz bo’yicha global dasturi direktori *Tereza Kasaeva (onlayn)*
09:30-09:50	Ftiziatriya va pulmonologiya xizmatlari faxriy mutaxassislarini taqdirlash
09:50-10:00	Umumiy suratga tushish

«SIRDARYO» ZALI

O’ZBEKISTON FTIZIATRLARI VA PULMONOLOGLARINING IX SYEZDINING YALPI YIG’ILISHI

“TUBERKULYOZ VA RESPIRATOR SALOMATLIK BO’YICHA GLOBAL STRATEGIYANI JORIY ETISH - G’ALABA SARI YO’L”

10:00 – 13:00

Moderatorlar:	**Parpieva Nargiza** (RIFPIATM. O’zbekiston)
	Yedilbaev Askar (JSST Yevropa bo‘yicha mintaqaviy byurosi)
	Borisova Yelena (Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi. O’zbekiston)
	Srinivas Nair («Stop TB Partnership». Shveytsariya)
10:00-10:15	O’zbekiston ftiziatriyasi: rivojlanish bosqichlari, yutuqlari va istiqbollari ***Nargiza Parpieva*** *RIFPIATM direktori, bosh ftiziatr. O’zbekiston*
10:15-10:30	Tuberkulyozdan xoli Markaziy Osiyo sari: mintaqaviy taraqqiyot, innovatsiyalar va hamkorlik imkoniyatlari ***Askar Yedilbaev*** *JSST Yevropa mintaqaviy byurosining tuberkulyoz boyicha maslahatchisi*

10:35-10:50 *onlayn*	JSST Yevropa mintaqasining 2023–2030 yillarga mo'ljallangan respirator salomatligi: sog'liqni saqlash tizimlari yukini kamaytirish bo'yicha sa'y-harakatlarni faollashtirish ***Yelena Soy*** *JSST Yevropa mintaqaviy byurosining noinfeksion kasalliklar bo'yicha mutaxassisi*
10:50-11:05	Global istiqbollar: infeksiya yuqishini kamaytirish va tuberkulyozni bartaraf etishning kaliti sifatida erta tashxislash ***Srinivas Nair*** *«Stop TB Partnership» hamkorligining katta maslahatchisi*
11:05-11:20 *onlayn*	GDF va O'zbekiston hamkorligi: tuberkulyozga qarshi dori vositalaridan barqaror foydalanish imkoniyatini ta'minlash ***Maya Kavtaradze*** *«Stop TB Partnership» hamkorligining katta maslahatchisi*
11:20-11:35 *onlayn*	Ftiziatriyada fundamental ilmiy tadqiqotlar ***Atadjan Ergeshov*** *FDBIM «MTITI» direktori, Rossiya*
11:35-11:50	O'zbekiston respirator patologiyasi: muammolar, chaqiriqlar va saboqlar ***Irina Liverko*** *RIFPIATM direktori o'rinbosari, bosh pulmonolog. O'zbekiston*
11:50-12:10 *onlayn*	Bronxial astma - istiqbollar qo'l ostida ***Andrey Belevskiy*** *«N.I. Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universiteti». Rossiya*
12:10-12:25	Klinik-xarajat guruhlari tizimi doirasida tuberkulyozga qarshi muassasalarni moliyalashtirish islohoti: imkoniyatlar, ustunliklar va istiqbollar ***Marat Kaliev,*** *Zoxid Ermatov* *Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi. Oz'bekiston*
12:25-12:40 *onlayn*	Tuberkulyozni tashxislash va davolashni turli sharoitlarda birlashtirish: farqni bartaraf etish ***Harald Hoffmann*** *IML mikrobiologiya va laboratoriya tibbiyot institute direktori, JSST tuberkulyoz bo'yicha Milliy referens-laboratoriyasi mudiri. Germaniya*
12:40-13:00	Obstruktiv patologiya terapiyasidagi innovatsiyalardan klinik amaliyotga: voqelik va imkoniyatlar ***Irina Liverko*** *RIFPIATM direktori o'rinbosari, bosh pulmonolog. O'zbekiston*
13:00-13:05	Yalpi yig'ilish yakunlari

TANAFFUS 13:05 – 14:00

«SIRDARYO» ZALI

O'ZBEKISTON FTIZIATRLARI VA PULMONOLOGLARINING IX SYEZDINING 1-SEKSIYA YIG'ILISHI

"TUBERKULYOZ DIAGNOSTIKASI, NAZORAT QILISH VA DAVOLASHDAGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR"

14:00 – 18:00

Moderatorlar:	**Parpieva Nargiza** (RIFPIATM, O'zbekiston)
	Borjiev Urmatbek (Milliy ftiziatriya markazi. Qirg'iziston)
	Boboxodjaev Oktam (Abu Ali ibni Sino nomidagi Tojikiston davlat tibbiyot universiteti, Tojikiston)
	Sadikov Abduvaxid (RIFPIATM. O'zbekiston)
14:00-14:15	Qirg'iziston Respublikasi Milliy tuberkulyozga qarshi dasturi sharhi ***Urmatbek Borjiev*** *Milliy ftiziatriya markazi direktori. Qirg'iziston*
14:15-14:30 *onlayn*	OIV-infeksiyasi va virusli gepatit bilan birga kechuvchi tuberkulyoz - ftiziatriyaning zamonaviy muammosi ***Yuriy Korobka***, *Viktoriya Baranova* *«Avliyo Luka nomidagi Lugansk davlat tibbiyot universiteti» Federal davlat budjet oliy ta'lim muassasasi. Rossiya*
14:30-14:45	Tojikiston Respublikasida 2019–2023 yillarda yo'tal mavjud shaxslarda tuberkulyoz skriningining samaradorligi ***Oktam Boboxodjaev***, *A. Radjabov, Yo. Rasulov* *Abu Ali ibni Sino nomidagi Tojikiston davlat tibbiyot universiteti, Sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi bosh ftiziatri. Tojikiston.*
14:45-15:00 *onlayn*	Belarus Respublikasida tuberkulyoz ***Yelena Krotkova*** *«Respublika pulmonologiya va ftiziatriya ilmiy-amaliy markazi» DM. Belarus*
15:00-15:15	Qirg'iziston Respublikasida mono- va poli-rezistent tuberkulyoz bo'yicha vaziyat ***Atirkul Toktogonova*** *Milliy ftiziatriya markazi. Qirg'iziston*
15:15-15:30	DRS tadqiqoti natijalari bo'yicha O'zbekistonda *M.tuberculosis*ning antimikrob chidamliligi: tendensiyalar va kutilmalar ***Lazis Turaev,*** *Nargiza Parpieva, Solix Alimov, Dilfuza Allamuradova, Zuxritdin Nuritdinov* *RIFPIATM. O'zbekiston*
15:30-15:45 *onlayn*	Qandli diabet bilan birga kechuvchi KDCh va pre-KKDCh TB bemorlarni davolashda zamonaviy yondashuvlar ***Oksana Komissarova***, *Yekaterina Polushkina, Larisa Lepexa, Rizvan Abdullaev* *FDBIM «MTITI». Rossiya*

15:45-16:00	Tojikiston Respublikasida tuberkulyoz mikobakteriyalarini genomik identifikatsiya qilish usulini joriy etishning klinik jihatlari ***Bobodjon Pirmaxmadzoda,*** *N. Badriddinova* *Abu Ali ibni Sino nomidagi Tojikiston davlat tibbiyot universiteti. Tojikiston*
16:00-16:15 *onlayn*	Tuberkulyoz o'chog'idagi bolalarni profilaktik davolash samaradorligi ***Igor Glushakov***, *Marina Lozovskaya, Svetlana Zubareva* *«Sankt-Peterburg davlat pediatriya universiteti» Federal davlat budjet oliy ta'lim muassasasi. Rossiya*
16:15-16:30	Indoltreazenlarning tuberkulyozga qarshi faolligi ***Boris Nikonenko***, *Svetlana Kayukova, Konstantin Mayorov, Margarita Shleeva, Valeriya Velejeva* *FDBIM «MTITI». Rossiya*
16:30-16:45	Tojikiston Respublikasida OIV-musbat va OIV-manfiy bolalar orasida tuberkulyoz diagnostikasining yangi usullarini joriy etish samaradorligini qiyosiy o'rganish ***Manuchexr Boboev,*** *P. Maxmudova, D. Soxibov* *Abu Ali ibni Sino nomidagi Tojikiston davlat tibbiyot universiteti. Tojikiston*
16:45-17:00 *onlayn*	Komorbid o'pka tuberkulyozi bemorlarda bedakvilinning farmakokinetik bo'sag'alarini baholash ***Andrey Zaxarov,*** *Nikita Chumavatov, Dmitriy Polyanskiy* *FDBIM «MTITI». Rossiya*
17:00-17:15	Tuberkulyozning generalizatsiyalangan shakllarining klinik-epidemiologik tavsifi ***Altinay Baytelieva*** *I.K. Axunbaev nomidagi Qirg'iziston davlat tibbiyot akademiyasi. Qirg'iziston*
17:15-17:30 *onlayn*	O'pka tuberkulyozi bilan kasallangan bemorlarni delamanid saqlovchi kimyoterapiya rejimlarini qo'llab kompleks davolash natijalari ***Aleksey Tixonov***, *Tatyana Smirnova, Ruslan Tarasov,* *FDBIM «MTITI». Rossiya*
17:30-17:45	Qirg'iziston Respublikasida ko'p dorilarga chidamli tuberkulyozni davolash natijalari ***Atirkul Toktogonova*** *Milliy ftiziatriya markazi. Qirg'iziston*
17:45-18:00	Muhokama. Sessiya yig'ilishi yakunlari bo'yicha hisobot.

«AMUDARYO 1» ZALI

O'ZBEKISTON FTIZIATRLARI VA PULMONOLOGLARINING IX SYEZDINING FDBIM «MTITI» ONLAYN SEKSIYASI YIG'ILISHI (ROSSIYA)

"TUBERKULYOZ DIAGNOSTIKASI, NAZORAT QILISH VA DAVOLASHDAGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR"

10:00 – 13:00

Moderatorlar:	**Sadikov Abduvaxid** (RIFPIATM. O'zbekiston)
	Djurabaeva Muxabbat (TDTU. O'zbekiston)
	Massavirov Sherali (RIFPIATM. O'zbekiston)
10:40-11:00 *onlayn*	Xavfli o'smalari bo'lgan bemorlarda tuberkulyozning differensial diagnostikasi: rentgenologik va laboratoriya prediktorlari ***Natalya Karpina,*** *Marina Kolesnikova* *FDBIM «MTITI». Rossiya*
11:00-11:20 *Onlayn*	Genetik va farmakokinetik biomarkerlar asosida o'pka tuberkulyozi va qandli diabet bilan kasallangan bemorlarni olib borish taktikasini optimallashtirish ***Andrey Zaxarov,*** *Natalya Chernых, Tatyana Smirnova, Atadjan Ergeshov* *FDBIM «MTITI». Rossiya*
11:20-11:40 *onlayn*	Nafas a'zolari tuberkulyozi mavjud bolalarda tuberkulyoz kimyoterapiyasining ichak mikrobiotasi holatiga ta'siri ***Natalya Yuximenko,*** *Svetlana Sterlikova, Marina Gubkina, Svetlana Kayukova* *FDBIM «MTITI». Rossiya*
11:40-12:00 *onlayn*	Tuberkulyoz intoksikatsiyasining turli ifodalanish darajasida jigarning funksional holati ***Rizvan Abdullaev***, *Violetta Shoroxova, Oksana Komissarova* *FDBIM «MTITI». Rossiya*
12:00-12:20 *onlayn*	Tamakiga qaramligi bo'lgan bemorlarda rezektatlarni baholash ma'lumotlari bo'yicha o'pka tuberkulyozining patomorfologik xususiyatlari ***Nikita Chumavatov,*** *Andrey Xozikov, Vladimir Romanov* *FDBIM «MTITI». Rossiya*
12:20-12:40 *onlayn*	O'pka tuberkulyozida triglitseridlar darajasi ***Violetta Shoroxova,*** *Rizvan Abdullaev, Polina Merzlikina, Oksana Komissarova* *FDBIM «MTITI». Rossiya*
12:40-13:00 *onlayn*	O'pka tuberkulyozi bilan kasallangan bemorlarda nafas yo'llari va ichak biotsenozi tuzilishi ***Asel Aynsanova***, *Oksana Komissarova, Sofya Andreevskaya* *FDBIM «MTITI». Rossiya*

TANAFFUS 13:00 – 14:00

«AMUDARYO 1» ZALI

O'ZBEKISTON FTIZIATRLARI VA PULMONOLOGLARINING IX SYEZDINING 2-SEKSIYA YIG'ILISHI

"AMALIY TIBBIYOTNING MULTIDISSIPLINAR YONDASHUVI DOIRASIDA O'PKADAN TASHQARI A'ZOLAR TUBERKULYOZINI DIAGNOSTIKASI VA DAVOLASH MASALALARI"

14:00 – 18:00

Moderatorlar:	**Nazirov Primkul** (RIFPIATM. O'zbekiston)
	Zuban Oleg («Tuberkulyozga qarshi kurash Moskva ilmiy-amaliy markazi». Rossiya)
	Saipova Nodira (TDTU. O'zbekiston)
	Abduraxmonov Daniyor (RIFPIATM. O'zbekiston)
14:00-14:20	O'zbekiston Respublikasida o'pkadan tashqari a'zolar tuberkulyoz shakllari bo'yicha zamonaviy vaziyat: muammolar va Respublikada tuberkulyozga qarshi kurash strategiyasini amalga oshirish istiqbollari ***Primkul Nazirov*** *RIFPIATM. O'zbekiston*
14:20-14:40 *onlayn*	Buyrak transplantatsiyasi va tuberkulyoz — fanlararo hamkorlikka e'tibor ***Olga Gordeeva,*** *Natalya Karpina, Anastasiya Borisova, Tatyana Smirnova, Aleksey Tixonov* *FDBIM «MTITI» huzuridagi nafas a'zolari kasalliklarini diagnostikasi va reabilitatsiya markazi. Rossiya*
14:40-15:00	Siydik pufagi saratonining BSJ-terapiyasidagi o'ziga xos asoratlar ***Oleg Zuban***, *Yunir Sikaev, Viktoriya Avdentova, RadmirChotchaev* *«Tuberkulyozga qarshi kurash Moskva ilmiy-amaliy markazi» davlat budjet sog'liqni saqlash muassasasi. Rossiya*
15:00-15:15 *onlayn*	Qirg'iziston Respublikasida 2021–2025 yillar davrida o'pkadan tashqari a'zolar tuberkulyozining doriga sezgir va doriga chidamli shakllarini davolash samaradorligi ***Kasimbek Mukambaev*** *Qirg'iziston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Milliy ftiziatriya markazi. Qirg'iziston*
15:15-15:35	Ayollar jinsiy a'zolari tuberkulyozi: reproduktiv salohiyatni amalga oshirish istiqbollari ***Svetlana Ochirova***, *Svetlana Kayukova, Lyudmila Mixaleva,* *Andrey Biryukov, Nataliya Gracheva* *K+31 klinikasi AJ. Rossiya*
15:35-15:55	Buyrak transplantati resipientlarida tuberkulyozni erta aniqlash xususiyatlari ***Radmir Chotkaev***, *Valeriya Filippova, Lyudmila Slogoskaya, N. Frolova,* *Tatyana Vaneeva, Oleg Zuban* *"Tuberkulyozga qarshi kurash Moskva ilmiy-amaliy markazi» davlat budjet sog'liqni saqlash muassasasi. Rossiya*

15:55-16:10	Suyak va bo'g'im tuberkulyozini jarrohlik yo'li bilan davolashning innovatsion texnologiyalarini joriy etish — bemorlar hayot sifatini oshirish garovi ***Issamiddin Usmanov*** *RIFPIATM. O'zbekiston*
16:10-16:30	Tuberkulyozda ultratovush tekshiruvi: yuqori sezgirlik va past spesifiklik o'rtasida — klinik ahamiyat chegarasi qaerdan o'tadi? ***Yekaterina Anvarova*** *TDTI. O'zbekiston*
16:30-16:45	Tuberkulyoz infeksiyasida osteosintezning patogenetik mexanizmlari va shifokor klinik amaliyotidagi imkoniyatlar ***Abduvaxob Boboev*** *RIFPIATM. O'zbekiston*
16:45-17:00	Siydik pufagi tuberkulyozi mavjud bemorlarda PRP-terapiyani qo'llash ***Sarvar Alidjanov***, *Daniyor Abduraxmanov, Baxtiyor Ismatov* *Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi. RIFPIATM. O'zbekiston*
17:00-17:15	Teri tuberkulyozi: tarqalishi hamda diagnostika va klinik kechishining zamonaviy xususiyatlari ***Nodira Saipova*** *TDTI. O'zbekiston*
17:15-17:30	Urogenital tuberkulyoz jarrohligining zamonaviy jihatlari ***Daniyor Abduraxmonov,*** *Maksud Raxmatov, Mirrazim Xakimov, Oleg Zuban,* *Sarvar Alidjanov, Soxib Nabiev* *RIFPIATM. Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi. O'zbekiston, "Tuberkulyozga qarshi kurash Moskva ilmiy-amaliy markazi» davlat budjet sog'liqni saqlash muassasasi. Rossiya*
17:30-17:45	Ayollar jinsiy a'zolari tuberkulyozi bepushtlik sabablaridan biri sifatida va yordamchi reproduktiv texnologiyalar imkoniyatlari ***Maruf Yuldashev*** *TDTI. O'zbekiston*
17:45-18:00	Muhokama. Sessiya yig'ilishi yakunlari bo'yicha hisobot

«AMUDARYO 2» ZALI

O’ZBEKISTON FTIZIATRLARI VA PULMONOLOGLARINING IX SYEZDI DOIRASIDA «BEMOR YONIDA: SOG’AYISH YO’LIDA PSIXOLOGIK TAYANCH VA MOTIVATSIYA» MAVZUSIDA HAMSHIRALAR UCHUN MAKTABI

«CHEGARA BILMAS SHIFOKORLAR» XALQARO MURUVVAT TASHKILOTI TEXNIK KO’MAGIDA

10:00 – 12.00

Moderatorlar:	**Usmanova Ruzilya** (Toshkent shahri ftiziatriya va pulmonologiya markazi. O’zbekiston)
	Salatdinova Nazlimxan («Chegara bilmas shifokorlar» XMT. O’zbekiston)

Maqsadli auditoriya: Sog’liqni saqlashning birlamchi bo’g’ini muassasalari hamshiralari

10:00-10:30	Kirish moduli: «Muzyorar» — tanishuv o’yini
10:30-10:40	Video: «Empatiya: bemorga g’amxo’rlikdagi insoniy aloqa»
10:40-11:20	Modul: «Salomatlik bilan bog’liq xulq-atvor va davolashga sodiqlik»
11:20-11:50	Modul: «Tinglash ko’nikmalari davolashga sodiqlikni qo’llab-quvvatlash strategiyasi sifatida»
11:50-12:00	Yakun. Sertifikatlarni topshirish

TANAFFUS 13:00 – 14:00

«AMUDARYO 2» ZALI

O'ZBEKISTON FTIZIATRLARI VA PULMONOLOGLARINING IX SYEZDINING 3-SEKSIYA YIG'ILISHI

"AMALIY TIBBIYOTNING MULTIDISSIPLINAR YONDASHUVI DOIRASIDA RESPIRATOR SALOMATLIK MUAMMOLARI"

14:00 – 18:00

Moderatorlar:	**Liverko Irina** (RIFPIATM. O'zbekiston)
	Ismailova Adolat (Inson immunologiyasi va genomikasi institute. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. O'zbekiston)
	Ubaydullaeva Naima (Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi. O'zbekiston)
	Gulnara Djambekova (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Xalqaro molekular allergologiya markazi. O'zbekiston)
	Muminov Davron (TDTI. O'zbekiston)
14:00-14:20 *onlayn*	SO'OK-sindrom yoki kasallik? ***Andrey Belevskiy*** *«N.I. Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universiteti» Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasi. Rossiya*
14:20-14:35	Bolalar va kattalarda birlamchi yoki tug'ma immunodefitsitlarning pulmonologik klinik niqoblari: diagnostika va davolash tamoyillari ***Adolat Ismailova*** *Inson immunologiyasi va genomikasi institute. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. O'zbekiston*
14:35-14:55 *onlayn*	O'pka mikobakteriozining klinik-diagnostik jihatlari: simptomlardan verifikatsiyaga ***Anna Yegorova*** *FDBIM «MTITI». Rossiya*
14:55-15:10	«Qochib ketayotgan» tashxis: yosh bemorlarda Th2-javob va steroidrezistentlikning yangi triggerlari ***Gulnara Djambekova*** *O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Xalqaro molekular allergologiya markazi. O'zbekiston*
15:10-15:25	«GOLD global strategiyasi, 2026 yil qayta ko'rib chiqilishi: asosiy o'zgarishlar va ularning klinik amaliyot uchun ahamiyati» ***Davron Muminov*** *TDTI. O'zbekiston*
15:25-15:40 *onlayn*	Immunokomprometatsiyalangan bemorlarda pnevmoniya ***Dmitriy Ruzanov*** *Respublika ilmiy-amaliy pulmonologiya va ftiziatriya markazi DM. Belarus*
15:40-15:55	Klinik amaliyotda yo'tal: mexanizmlar, diagnostika ***Naima Ubaydullaeva*** *Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi. O'zbekiston*
15:55-16:10 *onlayn*	Respirator infeksiyalarni vaksinoprofilaktika qilish ***Yelena Davidovskaya***

	Respublika ilmiy-amaliy pulmonologiya va ftiziatriya markazi DM. Belarus
16:10-16:25	Bolalarda shifoxonadan tashqari pnevmoniya: virusli triggerdan asoratlangan kechishgacha — terapevtik korreksiya imkoniyatlari ***Inobat Axmedova*** *Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi. O'zbekiston*
16:25-16:40	FeNO-mental natija: azot oksidi testi pulmonolog va terapevt amaliyotini qanday o'zgartiradi ***Naima Ubaydullaeva*** *Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi. O'zbekiston*
16:40-16:55	Fagoterapiya vs superinfeksiyalar: molekular mexanizmlar, antibiotiklar bilan sinergizm va polirezistentlikni yengishning klinik protokollari ***Irina Liverko*** *RIFPIATM direktori o'rinbosari, bosh pulmonology. O'zbekiston*
16:55-17:10	Respirator infeksiyalarni ratsional antibakterial davolash ***Gulchexra Tashmetova*** *Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi. O'zbekiston*
17:10-17:25 *onlayn*	Sarkoidoz bugun: paradigma almashinuvi ***Yevgeniy Shepixin*** *FDBIM «MTITI». Rossiya*
17:25-17:40	SO'OKni kompleks davolashda antileykotrien preparatlarning o'rni: imkoniyatlar va cheklovlar ***Xurshid Tashmetov*** *Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi. O'zbekiston*
17:40-17:55	Respirator viruslar: virusga qarshi terapiya imkoniyatlari ***Gulchexra Tashmetova*** *Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi. O'zbekiston*
17:55-18:00	Muhokama. Sessiya yig'ilishi yakunlari bo'yicha hisobot

«AMUDARYO 3» ZALI

O'ZBEKISTON FTIZIATRLARI VA PULMONOLOGLARINING IX SYEZDI DOIRASIDA «BEMORLARNI SAMARALI YO'NALTIRISH MAKTABI: STANDARTLARDAN AMALIYOTGA» MAVZUSIDAGI

UMUMIY AMALIYOT SHIFOKORLARI UCHUN MAKTAB

10:00 – 12.00

Moderatorlar:	**Ubaydullaeva Naima** (Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi. O'zbekiston)
	Rajabov Xayrulla (RIFPIATM. O'zbekiston)
	Adilov Anar Farman o'g'li (O'pka kasalliklari markazi. Ozarbayjon)
	Tashmetova Gulchexra (Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi. O'zbekiston)

Maqsadli auditoriya: Sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'ini muassasalari umumiy amaliyot shifokorlari

10:00-10:30	Tuberkulyozni tez diagnostika qilish uchun innovatsion texnologiyalar: M.tuberculosis antigenini aniqlash uchun molekular-genetik, sun'iy intellektli rentgenologik usullar, teri testlari va ekspress-testlarni kompleks qo'llash ***Anar Farman ogli Adilov*** *O'pka kasalliklari markazi. Ozarbayjon*
10:30-11:00	Tuberkulyoz diagnostikasi standartlari va bemorlarni yo'naltirish ***Lochinbek Xalimzoda*** *RIFPIATM. O'zbekiston*
11:00-11:30	Bronxial astma diagnostikasi va davolash standartlari hamda kasallik kechishini nazorat qilishni optimallashtirish doirasida bemorlarni yo'naltirish ***Gulchexra Tashmetova*** *Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi. O'zbekiston*
11:30-12:00	Surunkali obstruktiv o'pka kasalligi diagnostikasi va davolash standartlari hamda kasallik kechishini nazorat qilishni optimallashtirish doirasida bemorlarni yo'naltirish ***Xayrulla Rajabov*** *RIFPIATM. O'zbekiston*
12:00-12:30	Yakun. Sertifikatlarni topshirish

TANAFFUS 13:00 – 14:00

«AMUDARYO 3» ZALI

O'ZBEKISTON FTIZIATRLARI VA PULMONOLOGLARINING IX SYEZDINING 4-SEKSIYA YIG'ILISHI

"AMALIY TIBBIYOTNING MULTIDISSIPLINAR YONDASHUVI DOIRASIDA TUBERKULYOZNI JARROHLIK YO'LI BILAN DAVOLASH MASALALARI"

14:00 – 18:00

Moderatorlar:	**Irgashov Akram** (RIFPIATM. O'zbekiston)
	Bagirov Mamed (FDBIM «MTITI». Rossiya)
	Adilxodjaev Askar (RIFPIATM. O'zbekiston)
14:00-14:20	Tuberkulyozda o'pka jarrohligining zamonaviy imkoniyatlari: ekspert nigohi va «End TB» strategiyasining maqsadli indikatorlariga erishish ***Akram Irgashov*** *RIFPIATM. O'zbekiston*
14:20-14:40 *onlayn*	Traxeya va asosiy bronxlar ekspirator stenozini jarrohlik yo'li bilan korreksiya qilish ***Ivan Martel,*** *Dmitriy Giller,* *I.M. Sechenov nomidagi Birinchi Moskva davlat tibbiyot universiteti Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasi. Rossiya*
14:40-15:00	Bolalar va o'smirlarda o'pka tuberkulyozini jarrohlik yo'li bilan davolash ***Mamed Bagirov*** *FDBIM «MTITI». Rossiya*
15:00-15:20	Tuberkulyozni tashxislash va davolash samaradorligini oshirishda endovizual miniinvaziv texnologiyalar ***Anvar Riskiev,*** *Askar Adilxodjaev, Akram Irgashov, Zariva Muminova, Akmal Abdisamatov, Kamol Sobirov* *RIFPIATM. O'zbekiston*
15:20-15:40	Destruktiv o'pka kasalliklarini jarrohlik yo'li bilan davolashdan keyingi bemorlarda persistirlovchi bronxial oqmani endobronxial yopish samaradorligini baholash ***Suxrob Xalimov,*** *Orxu Salixov, M. Safarov* *Tuberkulyoz, pulmonologiya va ko'krak qafasi jarrohligi milliy markazi. Tojikiston*
15:40-16:00	Torakal jarrohlik amaliyotidagi noyob holatlar ***Mamed Bagirov*** *FDBIM «MTITI». Rossiya*
16:00-16:20	O'pka tuberkulyozi residivlari xavfini kamaytirishga qaratilgan jarrohlik aralashuvlari yondashuvlarini takomillashtirish ***Shokirjon Mayusupov*** *RIFPIATM. O'zbekiston*
16:20-16:35	KDCh/KKDCh-TBni qisqa muddatli davolash rejimlarida o'pka tuberkulyozi bilan og'rigan bemorlarni jarrohlik yo'li bilan davolash tajribasi ***Sunnatillo Abulkasimov*** *RIFPIATM. O'zbekiston*

16:35-16:40 *onlayn*	Destruktiv o'pka tuberkulyozini davolashda bir vaqtda intraplevral torakoplastika bilan o'pka rezeksiyalari ***Elyor Ermakov*** *RIFPIATM. O'zbekiston*
16:40-17:00	Muhokama. Sessiya yig'ilishi yakunlari bo'yicha hisobot



O’ZBEKISTON FTIZIATRLARI VA PULMONOLOGLARINING IX SYEZDI

AKADEMIK SHOKIR ALIMOV ILMIY O’QISHLARI DOIRASIDA

DAVRLAR VA AVLODLAR BOG’LIQLIGI: MILLAT SALOMATLIGI YO’LIDA TIBBIYOT INNOVATSIYALARI MAVZUSIDAGI MAJLIS

DASTURI

2026-yil 25-sentyabr

Toshkent

O’TKAZILISH JOYI
Akademik Sh. Alimov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi

MANZIL
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Majlisi ko’chasi, 1-uy.

RO’YXATDAN O’TISH
Anjuman ishtirokchilarini ro’yxatdan o’tkazish 2026-yil 25-sentabr kuni soat 08:00 dan 09:00 gacha akad. Sh.Alimov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi majlislar zali foyesida amalga oshiriladi.

Tibbiyot xodimlari uchun konferensiya zaliga kirish erkin. Kirishda shaxsni tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish lozim.

Xizmat safari guvohnomalariga belgi qo’yish ro’yxatdan o’tish stendida amalga oshiriladi.

Ishtirokchi sertifikatlari konferensiya ishi yakunlanganidan so’ng diplom nusxasi va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo’lganda beriladi.

KONFERENSIYANING RASMIY TILLARI
O’zbek, rus

MA’RUZACHILAR UCHUN MA’LUMOT
Yig’ilish zali kompyuterlar va multimedia proektorlari bilan jihozlangan, shaxsiy kompyuterdan foydalanishga yo’l qo’yilmaydi.
Taqdimotlarni yig’ilish boshlanishidan kamida bir soat oldin flesh-kartada taqdim etish zarur.

MOBIL TELEFONLAR
Ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilaridan yig’ilish o’tkaziladigan zallarda mobil telefonlarni o’chirilgan holatda yoki ovozsiz rejimda saqlash qat’iy so’raladi.

CHEKISH
Yig’ilish zallari va RIFPIATM hududida chekish taqiqlanadi.

AKADEMIK SH. ALIMOV NOMIDAGI RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN FTIZIATRIYA VA PULMONOLOGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI DIREKTORINING TABRIGI

Hurmatli mehmonlar, aziz do‘stlar va anjuman ishtirokchilari!

Barchangizni uchinchi ilmiy-amaliy konferensiya ish boshlagani bilan tabriklayman. «Alimov o‘qishlari» doirasida o‘tkazilayotgan ushbu anjuman joriy yilgi tibbiy tadbirlar taqvimida muhim o‘rin tutadi. U O‘zbekiston ftiziatriya va respirator tibbiyot ilmiy maktabini mustahkamlash hamda rivojlantirishning yangi bosqichiga xizmat qilmoqda.

Konferensiya ilmiy-tadqiqot loyihalari va tashabbuskor izlanishlar natijasida erishilgan innovatsion yutuqlarni muhokama qilish, tajriba va fikr almashish uchun noyob maydondir. Shuningdek, tadqiqot natijalarini klinik amaliyotga joriy etish orqali respublika aholisiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati va darajasini oshirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqishga xizmat qiladi.

Inson salomatligi – tabiatning bebaho ne’mati, bugungi va kelgusi avlodlar farovonligining garovidir. Sayyoramizdagi har bir inson salomatligini asrash va mustahkamlash – barchamizning burchimiz. Umid qilamizki, ilmiy-amaliy konferensiya faoliyati Prezidentning «2023–2026-yillarda ftiziatriya va pulmonologiya xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-12-son qarorida belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga munosib hissa qo‘shadi.

Sizlarga sharafli mehnatingizda yangi yutuqlar tilayman!

Parpieva Nargiza Nusrtatovna
Akademik Sh. Alimov nomidagi RIFPIATM direktori,
O’zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti sovrindori, t.f.d., professor

2026- yil 25-sentyabr

RIFPIATM MAJLISLAR ZALI

O'ZBEKISTON FTIZIATRLARI VA PULMONOLOGLARINING IX SYEZDI AKADEMIK SH. ALIMOV ILMIY O'QISHLARI DOIRASIDA

«DAVRLAR VA AVLODLAR UZVIYLIGI: MILLAT SALOMATLIGI YO'LIDAGI TIBBIYOT INNOVATSIYALARI» MAJLISI

09:00 – 11:05

Moderatorlar:	**Parpieva Nargiza** (RIFPIATM. O'zbekiston)
	Salixov Orzu (Tuberkulez, pulmonologiya va ko'krak qafasi jarrohligi Milliy markazi. Tojikiston)
	Totogonova Atirgul (Milliy ftiziatriya markazi. Qirg'iziston)
	Massavirov Sherali (RIFPIATM. O'zbekiston)
09:00-09:05	Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori N.N. Parpievaning kirish so'zi
09:05-09:20	Bolalar va kattalarda birlamchi yoki tug'ma immun tanqisliklari pulmonolog va ftiziatrning kundalik amaliyotida: tashxislash va davolash imkoniyatlari ***Adolat Ismailova*** *O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Inson immunologiyasi va genomikasi institute. O'zbekiston*
09:20-09:35 *onlayn*	Tuberkulez infeksiyasi o'chog'i xususiyatining bolalar va o'smirlarda tuberkulez bilan kasallanish va uning klinik tuzilishiga ta'siri ***Gulbadan Bekembaeva*** *«Astana tibbiyot universiteti» NAT. Qozog'iston*
09:35-09:50	Nafas yo'li o'smali stenozi bo'lgan bemorda traxeyani rezeksiya qilish va autoperikard bilan plastika: Tojikiston Respublikasidagi birinchi muvaffaqiyatli operatsiya ***Orxu Salixov,*** *S. Xalimov* *Tuberkulez, pulmonologiya va ko'krak qafasi jarrohligi Milliy markazi. Tojikiston*
09:50-10:05	O'pka tuberkulezi residivi xavfi prognozining klinik-genetik prediktorlari ***Dauranbek Ongarbaev,*** *Nargiza Parpieva* *TDTI. RIFPIATM. O'zbekiston*
10:05-10:20 *onlayn*	Qirg'iziston Respublikasida nafas a'zolari kasalliklari bo'lgan bemorlarda aniqlangan tuberkulezga xos bo'lmagan mikobakteriyalarning epidemiologik va tur tavsifi ***Gulshan Mataeva*** *Milliy ftiziatriya markazi. Qirg'iziston*
10:20-10:35	Keksalarda tuberkulez: kasallik kechishining klinik-patogenetik xususiyatlari ***Sherali Massavirov,*** *Nargiza Parpieva* *TDTI. RIFPIATM. O'zbekiston*
10:35-10:50	Surunkali obstruktiv o'pka kasalligida adipokinlar va tizimli yallig'lanish: leptin va adiponektinning ahamiyati ***Xurshid Tashmetov,*** *Naima Ubaydullaeva*

	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi. O'zbekiston
10:50-11:05	Yangi tuberkulyozga qarshi dori vositalariga rezistent bo'lgan M.tuberculosis shtammlarining populyatsion-genetik xususiyatlari ***Zayniddin Sayfutdinov,*** *Nargiza Parpieva* *RIFPIATM. O'zbekiston*

TANAFFUS 11:05 – 11:25

RIFPIATM MAJLISLAR ZALI

O'ZBEKISTON FTIZIATRLARI VA PULMONOLOGLARINING IX SYEZDI

AKADEMIK SH. ALIMOV ILMIY O'QISHLARI DOIRASIDA

«DAVRLAR VA AVLODLAR UZVIYLIGI: MILLAT SALOMATLIGI YO'LIDAGI TIBBIYOT INNOVATSIYALARI» MAJLISI DAVOMI

11:25 – 13:00

Moderatorlar:	**Liverko Irina** (RIFPIATM. O'zbekiston)
	Nazirov Primkul (RIFPIATM. O'zbekiston)
	Usmanov Issamiddin (RIFPIATM. O'zbekiston)
	Tashmetova Gulchexra (Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi. O'zbekiston)
	Massavirov Sherali (RIFPIATM. O'zbekiston)
11:25-11:40	Suyak va bo'g'im tuberkulyozi bilan og'rigan bemorlarning psixoemotsional holati ***Gulrux Alimova,*** *Primkul Nazirov* *Buxoro davlat tibbiyot instituti, RIFPIATM. O'zbekiston*
11:40-11:55 *onlayn*	Tuberkulez kimyoterapiyasining nojo'ya hodisalari rivojlanishi uchun xavf omili sifatida tuberkulezga qarshi preparatlarni birgalikda qo'llashda ularning o'zaro ta'sirini tahlil qilish ***Darya Vaylenko,*** *Tatyana Tananakina, Viktoriya Baranova* *FDBTM OTM «Lugansk davlat Avliyo Luka nomidagi tibbiyot universiteti». Rossiya*
11:55-12:10	COVID-19ning tuberkulez bilan kasallangan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish tizimiga ta'siri ***Ruzilya Usmanova,*** *Nargiza Parpieva* *Toshkent shahar ftiziatriya va pulmonologiya markazi. RIFPIATM. O'zbekiston*
12:10-12:25 *onlayn*	Tuberkulez va kimyoterapiyaning respirator trakt mikrobiotasi holatiga ta'siri ***Nikita Mironov,*** *Irina Vasileva, Svetlana Kayukova, Anna Panova* *N.I. Pirogov nomidagi RMTTU. Rossiya*
12:25-12-40	O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi kechishini prognoz qilishda gematologik leykotsitar indekslarning ahamiyati

	Lochinbek Xalimzoda, *Irina Liverko* *RIFPIATM. O'zbekiston*
12:40-12:55 *onlayn*	Rezistent tuberkulezni bemorga yo'naltirilgan yondashuv asosida davolashning boshqariladigan va boshqarilmaydigan omillarini tahlil qilish ***Viktoriya Baranova*** *FDBTM OTM «Lugansk davlat Avliyo Luka nomidagi tibbiyot universiteti». Rossiya*
12:55-13:00	Muxokama paneli

TANAFFUS 13:00 – 14:00

RIFPIATM MAJLISLAR ZALI

O'ZBEKISTON FTIZIATRLARI VA PULMONOLOGLARINING IX SYEZDI

AKADEMIK SH. ALIMOV ILMIY O'QISHLARI DOIRASIDA

«DAVRLAR VA AVLODLAR UZVIYLIGI: MILLAT SALOMATLIGI YO'LIDAGI TIBBIYOT INNOVATSIYALARI» MAJLISI

14:00 – 18:00

Moderatorlar:	**Liverko Irina** (RIFPIATM. O'zbekiston) **Usmanov Issamiddin** (RIFPIATM. O'zbekiston) **Nazirov Primkul** (RIFPIATM. O'zbekiston) **Massavirov Sherali** (RIFPIATM. O'zbekiston)
14:00–14:15	Sog'liqni saqlash resurslarini boshqarish doirasida tuberkulez laborator diagnostikasiga tizimli logistik yondashuvni joriy etish samaradorligi ***Sharofiddin Yuldashev,*** *Nargiza Parpieva* *RIFPIATM. O'zbekiston*
14:15–14:30	Orolbo'yi hududida tuberkulyoz epidemiologiyasining tendensiyalari va zamonaviy xususiyatlari tahlili ***Muxitdin Zoirov,*** *Primkul Nazirov* *RIFPIATM. O'zbekiston*
14:30–14:45	O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi kechishini prognoz qilishda xavotirli-depressiv buzilishlarning klinik ahamiyati ***Yuliya Fattaxova,*** *Irina Liverko* *TDTI. RIFPIATM. O'zbekiston*
14:45–15:00	Tuberkulez bilan kasallangan bemorlar davolanishini nazorat qilishga innovatsion yondashuvlar ***Kamol Sabirov,*** *Abduvaxid Sadikov, Askar Adilxodjaev* *RIFPIATM. O'zbekiston*

15:00–15:15	O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi rivojlanishida gomotsisteinning klinik va prognostik roli ***Shaxnoza Kuchkarova,*** *Elnora Abduganieva* *RIFPIATM. O'zbekiston*
15:15–15:30	Bronx-o'pka kasalligining kechishi va rivojlanishini nazorat qilish garovi sifatida davolanishga sodiqlik ***Keunimjay Mambetniyazov,*** *Irina Liverko* *RIFPIATM. O'zbekiston*
15:30–15:45	Umurtqa tuberkulezi bo'lgan bemorlarda yurak ishemik kasalligi rivojlanish xavfini baholash ***Dilfuza Umurova,*** *Issamiddin Usmanov* *RIFPIATM. O'zbekiston*
15:45–16:00	O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi bo'lgan bemorlarda komorbidlik rivojlanishi prognozida metabolik prediktorlar ***Ravkat Fattaxov****, Irina Liverko* *RIFPIATM. O'zbekiston*
16:00–16:15	OIV-infeksiyasi bo'lgan bemorlarda suyak va bo'g'imlar tuberkulezining namoyon bo'lishi ***Bexzod Ermatov,*** *Primkul Nazirov* *Jizzax viloyati ftiziatriya va pulmonologiya markazi.* *RIFPIATM. O'zbekiston*
16:15–16:30	Shifokorning real klinik amaliyotida bronxial astma fenotiplari ***Firuza Xudaybergenova,*** *Elnora Abduganieva* *RIFPIATM. O'zbekiston*
16:30–16:45	M. tuberculosisni aniqlashda target sekvenirlashning diagnostik qiymati ***Dilfuza Allamuratova,*** *Muxabat Djurabaeva* *RIFPIATM. TDTI. O'zbekiston*
16:45–17:00	Tuberkulez koksitida kuzatuvning uzoq muddatli bosqichida endoprotezlashning muvaffaqiyatsizligini qanday oldini olish mumkin? ***Iklas Seitbaev,*** *Primkul Nazirov* *S. Sultanov nomidagi Respublika ftiziatriya va pulmonologiya markazi.* *Qoraqalpog'iston Respublikasi.* *RIFPIATM. O'zbekiston*
17:00–17:15	O'pka aspergillezi asoratlarini erta prognoz qilish ***Faxriddin Madaminov*** *Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti (O'zbekiston)*
17:15–17:30	Kattalarda tuberkulezni tashxislash yondashuvlarini optimallashtirish ***Eson Xolboev,*** *Abduvaxid Sadikov* *Buxoro viloyati ftiziatriya va pulmonologiya markazi.* *RIFPIATM. O'zbekiston*
17:30–17:45	Suyak va bo'g'imlar tuberkulezining dorilarga chidamli shakllarini davolash samaradorligini oshirish yondashuvlari ***Zuxriddin Gaziev,*** *Primkul Nazirov* *RIFPIATM. O'zbekiston*
17:45–18:00	Munozara paneli: muhokama, rahbarlar va ekspertlar fikri

“INNOVATSION-MASOFAVIY TA’LIM VA MONITORING MARKAZI” ZALI

“TUBERKULEZ BILAN KASALLANGAN BEMORLARNING ELEKTRON REGISTRINI (DHIS-2) JORIY ETISH: TIZIMNI REAL VAQT REJIMIDA NAMOYISH QILISH VA MINTAQAVIY TUBERKULEZGA QARSHI XIZMAT UCHUN AMALIY SHARH” MAVZUSIDAGI MAHORAT DARSI

14:00 – 16:00

Moderatorlar:	**Yuriy Rogachev** (HISP EECA, Shveysariya) **Mixmanov Usmon** (Global jamg’arma grantining TB komponenti. O’zbekiston)

Maqsadli auditoriya*:* Ftiziatriyamuassasalarining viloyat bo’linmalari bosh shifokorlari va muassasalar tashkiliy-uslubiy bo’limi mutaxassislari.

14:00–15:00	Tuberkulez bilan kasallangan bemorlarning elektron registri (DHIS-2) tizimini real vaqt rejimida namoyish qilish
15:00–16:00	Mintaqaviy tuberkulezga qarshi xizmat uchun DHIS-2ning amaliy sharhi

RIFPIATM MUZOKARALAR XONASI

O’ZBEKISTON FTIZIATRLARI VA PULMONOLOGLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT JAMIYATI HAMDA MARKAZIY OSIYO PULMONOLOGLARI ASSOTSIATSIYASI BOSHQARUVI MAJLISI

14:00 – 16:00

14:00–14:30	Ilmiy jamiyatlar faoliyati to’g’risida hisobot. Rezolyusiya
14:30–15:00	Taftish komissiyasi hisoboti. Rezolyusiya
15:00-15:30	«Markaziy Osiyo pulmonologlari assotsiatsiyasi axborotnomasi» jurnali tahrir hay’ati hisoboti. Rezolyusiya
15:30-16:00	Syezd rezolyutsiyasini qabul qilish